

**MUSIQA SAN'ATIGA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB
INTERNATLARIDA BAXSHICHILIK SAN'ATINI O'RGATISHNING
PEDAGOGIK QARASHLARI**

**Choriyev Dilmurod Normo'minovich.
Respublika baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan
maktab internatining direktori**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida baxshichilik san'atini o'rgatishning pedagogik qarashlari tahlil qilingan. Baxshichilik san'ati, o'zining mustahkam an'analari va zamonaviy yondashuvlari bilan, o'quvchilarga nafaqat ijro texnikasini, balki milliy qadriyatlar, badiiy tafakkur va improvisatsiyani ham o'rgatadi. Ushbu maqola baxshichilik san'atini o'rgatishdagi ustoz-shogirdlik an'analarini, ijro texnikasini va pedagogik nazoratning ahamiyatini ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqola baxshichilik san'atini yosh avlodga o'rgatish orqali milliy madaniyatni rivojlantirish va uning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Baxshichilik san'ati, pedagogik qarashlar, ustoz-shogirdlik an'anasi, milliy qadriyatlar, ijro texnikasi, milliy qadriyatlar, badiiy tafakkur, improvisatsiya, musiqa va so'z uyg'unligi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar

Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash hamda maqom va baxshichilik san'atini muhofaza qilish, milliy qadriyatlarimizni keng namoyon etish bilan bog'liq faoliyatini yanada takomillashtirish, nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning baxshichilik san'atini rivojlantirish, uni ta'lim tizimida o'qitish bo'yicha bir qator qarorlari yuzaga keldi.

Bugun yurtimizda baxshichilik san'atiga alohida e'tibor berilmoqda. 2018 yil 1 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro baxshchilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Qaror ijrosini amalga oshirish

maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar Akademiyasi va Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan shu yilning 5-10 aprel’ kunlari Xalqaro baxshichilik festivali bo‘lib o‘tkazildi. Mazkur tadbirda 200 nafardan ortiq baxshilar, hay’at a’zolari va boshqa mehmonlar ishtirok etdilar.

Baxshichilik va dostonchilik san’atini rivojlantirish, baxshishoirlar ijodining o‘zbek madaniyati va san’atidagi o‘rni hamda ahamiyatini yanada oshirish, shuningdek, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, baxshichilik va dostonchilik san’atini ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i orqali mamlakatimizda hamda chet ellarda targ‘ib etish, ustoz baxshilar, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli yosh baxshilar hamda doston ijrochilari faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodni mardlik, halollik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga va ajdodlar merosiga yuksak sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 5-iyundagi 253-son buyrug‘i hamda “Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida ilmiy loyihami bajarish to‘g‘risida”gi 2023-yil 12-iyunda taraflar o‘rtasida tuzilgan IL662204254-son Shartnomaga muvofiq “Innovatsion texnologiyalar asosida baxshichilik maktablari uchun yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-son “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish” qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan 2018-2022 yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ning 5,6,7,8 bandlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand Surxondaryo, Xorazm va Qashqadaryo, viloyatlaridagi ayrim bolalar musiqa va san’at maktablari qoshida baxshichilik va dostonchilik yo‘nalishi bo‘yicha ochiladigan sinflar uchun o‘quv reja va dasturlar asosida uslubiy qo‘llanmalar chop etish hamda media ilovalar va ko‘rgazmali vositalar bilan ta’minlash, O‘zbekiston xalq baxshilari haqida qisqa va asosiy ma’lumotlarni to‘plab, ularning portretlarini tayyorlash va joylardagi 312 ta bolalar musiqa va san’at maktablariga yetkazish vazifalari belgilangan.

Amaliy loyihaning tasdiqlangan ish rejasiga ko‘ra 2023-yilning 22-23 sentabr kunlari loyiha a’zolari Surxandaryo viloyati Termiz shahrida joylashgan Respublika baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab internatning mavjud o‘quv-uslubiy ta’mintonini o‘rganib, tahlil qilib qaytdi. Shu bilan birga Respublikadagi mavjud bolalar musiqa va san’at maktablaridagi baxshichilik va doston ijrochiligi sinflarida mavjud o‘quv adabiyotlarni ta”im standartlariga mosligi o‘rganildi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning mazkur muhim tadbir o‘tkazilishining asosiy tashabbuskori bo‘lishi ham diqqatga sazovordir. O‘zbekistonatoqli baxshilar yurti. Ular orqali yurtimizning boy qadriyatları, o‘tmishi, orzu va umidlari ifoda etiladi. Baxshichilik, xalq dostonchiligi o‘zbek xalqining qadim madaniyati, milliy qadriyatlarining ilk ko‘rinishlaridan biri sifatida ardoqlanib kelinayotgan san’at turidir. Baxshilar deb azaldan terma, qo‘sinq va dostonlarni yoddan kuylovchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi xalq dostonchilari aytilgan, o‘zbek xalqining to‘yu bayramlari, yaxshi kunlari, ularning ishtirokisiz o‘tmagan.

Baxshichilik san’atida ustoz-shogirdlik an’analari, ularning doston ijro etish usul va yo‘llaridagi o‘zgachaliklar, farqli tomonlar nazariy jihatdan “dostonchilik maktabi” atamasini yuzaga keltirdi. Garchi baxshilar repertuar birligi, ijrodagi umumiyl o‘xhash tomонlar, epik mahorat masalalari bilan birbirlariga o‘xhash bo‘lsa-da, dostonchilik maktabi doirasida xususiy jihatlari bilan farqlanib ham turadilar. Shuni alohida ta’kidlash joizki, dostonchilik maktablarining yuzaga kelishi, taraqqiyoti va ijro usullari baxshilar san’atining ijtimoiymadaniy jarayonlarda ommalashuvi bilan bog‘liq holatlardan hisoblansada, ikkinchi tomonдан badihago‘y baxshilarning o‘z uslub va mahoratlarini takomillashtirib, shogird baxshilarni tarbiyalab yetishtirganliklari sabab bo‘lgan Fol’klorshunos olimlarning XX asr davomida olib borgan ilmiy kuzatishlari respublikamizda ko‘plab dostonchilik maktablari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, surxondaryo va Qashqadaryo dostonchilik maktablari buning yorqin misolidir. Ayni paytda bir vohaga xos dostonchilik maktablari ham bir-birlari bilan

o‘xhash va farqli tomonlarga ega. Buni Surxondaryo dostonchilik maktablari misolida tahlilga tortsak.

Ma'lumki, Surxondaryoda ham baxshichilik (dostonchilik) san'ati ancha kuchli va qadimiy an'analarini saqlagan holda yetib kelgan hamda baxshilar auditoriyasini kengaytirgan. Ustoz baxshilarning soz va so‘zdagi mahorati, epik an'analarga qat'iy rioya qilishlari, birinchidan, shogirdlar tarbiyalab, doston ijro etishni davom ettirgan bo‘lsa, ikkinchidan, o‘sha ustozning yashash hududi geografik jihatdan baxshichilikning markazlashuviga asos bo‘lgan.

O‘zbekistonning janubiy hududlarida shakllangan dostonchilik maktablari o‘zining lokal xususiyatlari bilan yurtimizdagи boshqa dostonchilik maktablaridan farq qiladigan xususiyatga ega. Jumladan, ushbu maktab nomoyondalari do‘mbira jo‘rligida dostonlarni va termalarni asosan bug‘iq ovozda ijro etishadi. Qolaversa, Sherobod, Qamashi, Qamay va Chiroqchi dostonchilik maktablari vakillari tomonidan kuylab kelingan “Malla savdogar”, “Balxuvon”, “Zaydaqul”, “Qo‘ng‘iriyot”, “Xonimoy”, “Ollonazar Olchinbek”, “Xurso‘na”, “Toshbosar” dostonlari boshqa dostonchilik maktablarining repertuarida uchramaydi. Taniqli fol’klorshunos olim Mamatqul Jo‘raev “Alpomish” dostonining Surxondaryo talqinlari bo‘yicha mukammal ilmiy tadqiqotlar olib borib, ijobiy natijalarga erishidi. M.Jo‘raev o‘zbek xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos durdonalaridan biri “Alpomish” dostoni milliy epik an'analing ko‘p asrlik badiiy evolyusiyasini o‘zida ifoda etgan doston haqida qo‘yidagi manbalarni bayon etdi. Bu doston syujetining arxaik qatlami qadimgi Turkiylarning mifologik tasavvurlari va epik an'analarga borib taqaladi. “Alpomish” dostoni Janubiy O‘zbekiston epik arealida, xususan, Surxondaryo viloyati baxshilari repertuarida hozirgacha saqlanib qolgan bo‘lib, jonli ijro holatida rivojlanib, yanada takomillashib bormoqda. Dostonning Surxondaryo vohasi dostonchilik maktablari vakillarining repertuarida mayjud bo‘lgan variantlari syujet qurilishining o‘ziga xosligi, matnining badiiy jihatdan mukammalligi va Alpomish haqidagi bir necha dostonni o‘z ichiga olgan nasliy turkumlik sifatida shakllanganligi bilan ajralib turadi. “Alpomish” dostoni qo‘ng‘irov versiyasining takomillashishiga

katta hissa qo'shgan Surxondaryo vohasi baxshichiligidan uchta dostonchilik maktabi, ya'ni Sherobod, Beshqo'ton va Boysun baxshichilik markazlari mavjud.

Musiqi san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab internatlarida baxshichilik san'atini o'rgatish pedagogik qarashlari o'zining an'anaviy va zamonaviy jihatlari bilan boyitilgan bo'lib, ular baxshichilik san'atining tarixi, uslubiyati va ijro texnikasini chuqur o'rganishga asoslanadi. Baxshichilik san'atini o'rgatishda quyidagi asosiy pedagogik qarashlar mavjud:

1. **Ustoz-shogirdlik an'anasi:** Baxshichilik san'atida eng muhim pedagogik prinsiplardan biri ustoz-shogirdlik an'anasi hisoblanadi. Shogird baxshilar o'z ustozlaridan bevosita bilim va mahoratni o'zlashtirib, ijro usullarini o'rganadilar. Ustoz shogirdni nafaqat san'atning texnikasiga, balki uning ruhiyatiga, an'analariga ham o'rgatadi. Bu pedagogik yondashuv baxshichilik san'atini avloddan-avlodga o'tkazishda muhim rol o'ynaydi.
2. **Ijro texnikasi va an'analarga hurmat:** Baxshichilik san'atini o'rgatishda an'anaviy ijro texnikalariga alohida e'tibor qaratiladi. Doston va qo'shiqlarning ijro etilish usullari, ularning badiiy va musiqiy xususiyatlarini o'rgatish, o'quvchilarga mustahkam asoslar yaratishning muhim qismidir. Pedagoglar an'anaviy musiqiy asboblar (do'mbira, rubob, tanbur va boshqalar) va ularning ijro usullarini chuqur o'rganishga o'rgatadilar.
3. **Badiiy tafakkur va improvisatsiya:** Baxshichilik san'ati nafaqat an'anaviy asarlarni ijro etishni, balki badiiy tafakkur va improvisatsiyani ham o'z ichiga oladi. Pedagogik qarashlarga ko'ra, yosh baxshilarga ijodiy yondashuvni, o'z ifodasini topishni va improvizatsiya qilishni o'rgatish zarur. Bu orqali ular o'z ijodiy potentsialini namoyon etishadi.
4. **Musiqiy va so'zning uyg'unligi:** Baxshichilik san'ati musiqiy va so'z san'ati o'rtasidagi uyg'unlikka asoslanadi. Pedagoglar o'quvchilarga musiqaning va so'zning uyg'unligini, ularning badiiy ifodalarini birlashtirishni o'rgatadilar. Shuningdek, doston va qo'shiqlarning mazmunini chuqur anglab, ular orqali ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash ham katta ahamiyatga ega.

5. **Milliy va umuminsoniy qadriyatlar:** Baxshichilik san'ati nafaqat o'zbek xalqining madaniy merosini saqlash, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Pedagogik qarashlar yosh avlodni milliy qadriyatlarni ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lib, baxshichilik orqali ona yurtga, ajdodlarga sadoqat, mardlik, halollik kabi fazilatlarni singdirish maqsad qilingan.
6. **Pedagogik nazorat va tahlil:** Baxshichilik san'atini o'rgatishda pedagogik nazorat va tahlil alohida o'rinni tutadi. Pedagoglar o'quvchilarning ijro texnikasini va badiiy ifodalarini baholash, ularga yaxshilanish va takomillashish yo'llarini ko'rsatish orqali ularni o'rgatadilar.

Shu tariqa, baxshichilik san'ati pedagogik qarashlari nafaqat musiqa va ijro texnikasini o'rgatish, balki yoshlarni o'z madaniyati, tarixi va qadriyatlari bilan yaqindan tanishtirishni ham maqsad qilgan. Bu yondashuvlar orqali baxshichilik san'ati o'zining haqiqiy o'rnini ta'lif tizimida egallab, milliy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. M.Alaviya "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" Toshkent Fan 1974-yil
2. M.Afzalov "O'zbek xalq baxshilari" Sharq yulduzları 1964 yil
3. Q.Yulodoshev "Alpomish" Ma'naviyat 2002-yil
4. X.Kichkilov "Surxon vohasi qo'shiqchiligidagi ajdodlarimiz an'anasi" Jayhun 2005-yil.
5. Dala yozuvlari. Jarqo'rg'on tumani N.Boymurodov mahallasida baxshi Norali Allanazarovdan yozib olingan.